

FALSAFIY TAFAKKUR TRANSFORMATSIYASINING PEDAGOGIK JARAYONDA QO'LLANILISHI

Hakimova Musharraf Fozilovna

(Osiyo Xalqaro Universiteti 1- bosqich Pedagogika yo`nalishi magistranti)

Annotatsiya: Ushbu maqolada falsafiy tafakkur va uning insondagi ijobiy tomonlari haqida hamda falsafiy tafakkur transformatsiyasining pedagogik jarayondagi ahamiyati to'g'risida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur, falsafa, sezgi, idrok, ong, mantiq, hukm, kibernetika, biologiya

Falsafiy tafakkur bu insonni kamolotga yetaklovchi faoliyat bo'lib, bu tafakkur va ong falsafasining birlashuvidan kelib chiqqan. Avvalo tafakkur va falsafaning o'zini alohida ko'rib chiqsak agar bu ikkisining inson hayotidagi barcha jarayonlarda yuqoridagi ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni ular o'rtasidagi bog'lanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yo'l bilan aks ettirishga aytiladi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va to'laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo'lmagan narsa yoki hodisalarni, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog'lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz. Tafakkur — inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo'ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayib qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi. Inson o'zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o'zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiylikini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bevosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega.

Tafakkur ko‘pgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, fiziologiya, kibernetika, biologiya)ning tadqiqot ob‘yekti hisoblanadi. Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarning inson uchun yangiligi, shaxsning faollik ko‘rsatish darajasiga ko‘ra bir necha turlarga (ko‘rgazmali harakat, ko‘rgazmali obrazli, amaliy, nazariy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va hokazo) ajratib tadqiq qilinadi. Ijtimoiy hayotda, ta‘lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo‘ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o‘zini o‘zi tanqid, baholash, tekshirish, o‘zini o‘zi tekshirish, nazorat qilish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, guruhiiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatlari vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok kilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Psixologiya tafakkurning filogenetik (insoniyat paydo bo‘lishi davri), ontogenetik (kishi umri davomida) bilishga oid tarixiy jihatlarini ham o‘rganadi. Hozirgi zamon fanining juda ko‘p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etmoqda.

Falsafa (yunoncha filosofiya – „donishlikni sevish“, yunoncha fileo – „sevaman“ va yunoncha sofia – „donolik“) – eng umumiy fan (nazariya), dunyoqarash shakllaridan biri bo‘lib inson faoliyati sohalaridan biri. U kishi qanday yashashi, hayot kechirishi kerak (etika); qaysi narsalar mavjud va ularning tabiati qanday (metafizika); bilim nima (epistemologiya); hamda qanday fikrlash to‘g‘ri (mantiq) ekanligini hal qilishga urinadi.

Falsafa, filosofiya – insonning dunyoda tutgan o‘rni va dunyoqarashining yaxlit tizimini ifodalovchi ma‘naviy faoliyatining bir shakli. Milodiy II, III asrlarda o‘tgan yunon faylasufi Diogen Laertskiyning shohidlik berishicha, yunon mutafakkiri Pifagor birinchi bo‘lib o‘zini „filosof“ deb atagan. Bu so‘z Geraklitning falsafiy ta‘limotida narsalarning tabiatini tadqiq etishga nisbatan qo‘llangan, tadqiqotchining o‘zi esa „filosof“ deb atalgan. Keyinchalik „filosof“ so‘zi har taraflama, keng, tushunarli va haqqoniy fikr yuritishga intiluvchi kishiga nisbatan qo‘llangan. Tarixiy ma‘lumotlar yunoncha „philosophia“ so‘zi arabchaga „falsafa“ bo‘lib o‘tganligi, arablar bu fanni „hikma“ deb atashi, ruschaga „filosofiya“ tarzida o‘tganligini tasdiqlaydi, demak falsafa bilan filosofiya so‘zlari bir xil ma‘noga ega.

Falsafaga haqiqatga eltuvchi ta‘limot sifatida yondashgan sokratchilar maktabi vakillari nuqtai nazaridan kurasak, „haqiqatga muhabbat“, „haqiqatni sevish“ degan ma‘no kelib chiqadi. Falsafa haqida fan tarixida turlicha, hatto birbiriga qarama-qarshi qarashlar mavjud. Falsafaga hamma fanlarning boshlanishi, olamning asl mohiyatini va universal qonunlarini ochuvchi fan deb yondashishdan tortib uni o‘z tadqiqot ob‘yekti va predmetiga ega bo‘lmagan mavhum va o‘ta umumlashgan, inson uchun foydasiz bilimlar majmui deb hisoblovchilar ham uchraydi. Insoniyat foydalanayotgan barcha bilimlar Falsafadan boshlanib, falsafiy xulosa bilan yakunlanadi. Falsafanini fan darajasiga olib chiqqan Platon uni „mavjudlikni, mangulikni va doimiylikni bilish“, Aristotel „narsalarning sabablari va asosiy tamoyillarini tadqiq etuvchi fan“ deb bilgan, stoiklar uni nazariy va amaliy tafeilotlarga intilish deb, epikurchilar unga „aql vositasida baxtga erishish yo‘li“ deb qaragan. Forobiy falsafani „hikmatni qadrlash“ yoki fikrlash san‘ati deb bilgan. O‘rta asrlar

xristian falsafasidasida u „tabiiy akl nuri vositasida erishiladigan dunyoviy donolik“ (teologiya esa ilohiylik nuri vositasida erishiladigan ilohiy donolik) deb ta’riflangan.

Falsafiy tafakkur hozirgi adabiyotlarda falsafaning vujudga kelishini marksizmning sinfiylik tamoyillariga asoslanib, quldorlik tuzumining shakllanishi bilan bog‘lab, uning tarixini uch ming yil deb hisoblanadi. Fikrimizcha, qadimgi asotirlardayoq falsafiy fikrlashlar, olam va undagi hodisalarga aql ko‘zi va tajriba mezoni bilan qarash unsurlari mavjuddir. Shu bilan birga falsafa tarixining rivojlanish bosqichlarini ijtimoiy taraqqiyotning u yoki bu davrlari bilan bog‘lab tushuntirish xam o‘zini oqlamaydi.

SHuning uchun falsafaning rivojlanish bosqichlari turli mintaqalarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lganligiga e’tiborni qaratish kerak. Hamma mintaqalar uchun falsafiy savol va javoblar tug‘ilishini universal bosqichi bo‘lib mifologik tafakkurning parchalanish davrini olish mumkin. Falsafiy fikr rivojlanishiga yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri – bu, jahon tarixiy–falsafiy jarayonlarni turli– tumanligini toraytirib qo‘yadigan Evropotsentrizm qarashlaridir. Bu qarashlarni g‘ayriilmiyligini ko‘rsatish bilan SHarq bilan bog‘liq jihatini tahlil etganda ham Osiyosentrizm g‘oyalari ta’siriga tushmaslik kerak. Bu o‘rinda G‘arb va SHarq tarixiy–falsafiy jarayonlarini davrlarga ajratish tamoyillariga e’tibor qaratish bilan birga G‘arb va SHarq falsafasidagi an’analarning o‘zaro munosabatini ham tahlil qilish lozim. SHarqning o‘ziga xosligi, unga munosib bo‘lgan madaniy taraqqiyot jahon sivilizatsiyasining beshigi, dunyo xalqlari rivojiga qo‘shilgan munosib hissa ekani ham sir emas.

Sharq falsafasi SHarqning o‘ziga xosligi, unga munosib bo‘lgan madaniy taraqqiyot jahon sivilizatsiyasining beshigi, dunyo xalqlari rivojiga qo‘shilgan munosib hissa ekani ham sir emas. Bu hol jahonning barcha xolis mutaxassis olimlari tomonidan e’tirof etiladi. qolaversa, Vatanimiz sivilizatsiyasining SHarq sivilizatsiyasining quchog‘ida voyaga etgani va uning qadriyatlarini o‘zida aks ettirganini, unga va butun dunyo madaniyatiga ulkan ta’sir ko‘rsatganini doimo esda tutish darkor.

Falsafiy tafakkur esa muttasil haqiqatni izlash, jamiyat hayotidagi barcha jarayonlarni , fan yutuqlari natijasida qo‘lga kiritilgan yangiliklarni mutlaqlashtirmaslikdir. Faylasuflar jamiyat hayotidagi har bir tartibot tizimiga ,ijtimoiy,iqtisodiy,siyosiy munosabatlarning shakllariga ,ilmiy kashfiyotlarga “Bu nima uchun shunday?”, “Bundan yaxshiroq bo‘lishi mumkin emasmi?”, degan savollar asosida yondashadi. Jamiyat hayoti va taraqqiyotida fanlar sohasida bunday qo‘yilmagan zamonlar bo‘lmagan. Bu savollarga javob insoniyat taraqqiyotining turli yangi yo‘llari, shakllari va imkoniyatlarni izlashni taqozo etadi. Zero ularga javob topishga qaratilgan amaliy jarayonlar jamiyat, fan-texnika taraqqiyoti,inson ma’naviy kamolotining asosiy sabablaridandir. Faylasuflarning mustaqil,ijodiy fikrlashlari ya’ni fikr erkinligi ham falsafiy tafakkurning jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini kuchaytiradigan sabablaridandir.

Inson falsafiy tafakkur orqali o‘z mohiyatini, borliqdagim o‘rnini biladi, avlodlar qoldirgan me’ros, o‘z davrining ilmiy amaliy yutuqlarini umumlashtirib , olamni bir biri bilan bog‘langan , taraqqiyotda bo‘lgan jarayon sifatida anglaydi, istiqbol rejalarini belgilaydi. Falsafa- tafakkur madaniyati,borliq haqidagi bilimlarning insoniyat ijtimoiy,

iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy taraqqiyoti tarixining umumlashgan ifodasidir. Falsafa insoniyat tarixida amalga oshirilgan boy tajribani yaxlit o'rganib, umumlashtirib, ularning ijobiy, salbiy jihatlarini tahlil etib, kelajakni oldindan ko'rishga imkon beradigan, kishilarning yangi sharoitlardagi faoliyatiga asos bo'ladigan umumiy xulosalar tizimini yuzaga keltiradi. Falsafada o'tmish tahliliga katta e'tibor berilsa ham, asosiy maqsad jamiyatning, insonning istiqboli bilan bog'liq bo'lgan muammolarini o'rganishdir.

Falsafiy tafakkur orqali kishilar ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishini va uning istiqbolini ko'ra bilishi, hozirgi kunda mamlakatimizda sodir bo'layotgan murakkab o'tish jarayoning ahamiyatini anglab olishga imkon beradi. Falsafiy tafakkur yoshlarda faqat o'z millatiga hurmatni emas, balki insonparvarlik, millatparvarlik, baynalminalchilik e'tiqodini ham tarbiyalaydi, barcha xalqlar va millatlarga nisbatan qardoshlik tuyg'ularini shakllantirishga yordam beradi. Demak, falsafiy tafakkur tor professionalizmga, fikriy mahdudlikka barham beradi, u kishiga keng ko'lamli mushohada yuritishga imkon yaratib, fikriy sayozlik, yengil-yelpi muhokamalardan saqlab keng va chuqur aqliy xulosalar qilishga o'rgatadi. Uni chuqur o'rganish insonda falsafiy tafakkur madaniyatini shakllanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"
2. E.Yusupov "Falsafa" O'quv qo'llanma Toshkent 2005
3. www.ziyouz.com kutubxonasi
4. [https:// arxiv.uz](https://arxiv.uz)